

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PHD 03/2025.27.12.B.08.09 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**AMINJONOVA CHAROSXON AKMALOVNA**

**BUXORO VILOYATI SHAROITIDA SOYA NAVLARINING  
QURG‘OQCHILIKKA CHIDAMLILIK FIZIOLOGIYASI**

**03.00.07 – O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Oglavlenie avtoreferata dissertatsii doktora filosofii (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of Doctor of Philosophy (PhD)**

**Aminjonova Charosxon Akmalovna**

Buxoro viloyati sharoitida soya navlarining qurg‘oqchilikka chidamlilik fiziologiyasi ..... 3

**Аминжонова Чаросхон Акмаловна**

Физиология засухоустойчивости сортов сои в условиях Бухарской области..21

**Aminjonova Charoskhon Akmalovna**

Physiology of drought tolerance of soybean varieties in the conditions of the Bukhara region ..... 41

**E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati**

Список опубликованных работ

List of published works ..... 45

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY  
DARAJALAR BERUVCHI PHD 03/2025.27.12.B.08.09 RAQAMLI  
ILMIY KENGASH**

---

**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**AMINJONOVA CHAROSXON AKMALOVNA**

**BUXORO VILOYATI SHAROITIDA SOYA NAVLARINING  
QURG‘OQCHILIKKA CHIDAMLILIK FIZIOLOGIYASI**

**03.00.07 – O‘simliklar fiziologiyasi va biokimyosi**

**BIOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Buxoro – 2026**

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.2.PhD/B923 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Buxoro davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida ([www.buxdu.uz](http://www.buxdu.uz)) hamda Ziyonet axborot-ta'lim portali ([www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)) da joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Xolliyev Askar Ergashovich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Rasmiy opponentlar:**

**O'roqov Sirojiddin Xudoyberdiyevich**  
biologiya fanlari doktori, professor

**Nasriddin Xalilov**  
qishloq xo'jaligi fanlari doktori, professor

**Yetakchi tashkilot:**

**Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD 03/2025.27.12.B.08.09 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil «9» sentabr kuni soat 15 00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Tel.: (+99865) 221-29-14, faks (+99865) 221-26-12, e-mail: [bsu\\_info@edu.uz](mailto:bsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Buxoro davlat universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (21/10/23 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 200117, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy. Buxoro davlat universiteti majlislar zali Tel.: (+99865) 221-29-14, faks (+99865) 221-26-12.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil «26» avgust kuni tarqatildi.

(2026-yil «26» avgust dagi 8 raqamli reestr bayonnomasi).



**X.T.Artikova**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash raisi, b.f.d., professor

**A.M.Qobilov**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash ilmiy kotibi, b.f.d., dotsent

**S.S.Murodova**

Ilmiy daraja beruvchi Ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, b.f.d., professor

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiya annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusini dolzarbligi va zarurati.** Hozirgi kunda dunyo aholisi sonining barqaror ortib borishi oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan global talabning keskin oshishiga sabab bo'lmoqda. Iqlim o'zgarishi sharoitida tuproq unumdorligining pasayishi, qurg'oqchilik jarayonlarining kuchayishi hamda ekin maydonlaridan foydalanish samaradorligining kamayishi so'nggi yillarda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash insoniyat oldida turgan eng ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Qurg'oqchilik soya yetishtirishga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi asosiy abiotik omillardan biri sifatida namoyon bo'lib, ko'plab hududlarda iqlim o'zgarishi natijasida yog'ingarchilik va bug'lanish o'rtasidagi nisbatning buzilishi suv tanqisligini yildan-yilga kuchaytirmoqda. Shu bois, mazkur muammolarni ilmiy asosda o'rganish, qurg'oqchilikka chidamlilik mexanizmlarini aniqlash hamda soya yetishtirish samaradorligini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarni rivojlantirish bugungi kunda dolzarb hisoblanadi.

Jahonda kuzatilayotgan global iqlim o'zgarishi jarayonida suv tanqisligi, tuproq va atmosfera qurg'oqchiligi kuchayib, boshqa abiotik ekostresslar qishloq xo'jaligi ekinlariga, jumladan soya yetishtirish jarayoniga ham sezilarli darajada salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, bu esa o'z navbatida oziq-ovqat ishlab chiqarish hajmiga, ekinlar mahsuldorligiga jiddiy tahdid solmoqda. Stress o'simlik biomorfologiyasi, fiziologiyasi va biokimyosida bir qator o'zgarishlarni keltirib chiqaradi va ularning o'sishini hamda hosildorligini pasaytiradi. Qurg'oqchilik keltirib chiqaradigan zararni kamaytirish uchun soyaning fiziologik va biokimyoviy mexanizmlarini faollashtirish, metabolik jarayonlarni kuchaytirish, makro va mikroelementlar hamda turli biofaol moddalardan oqilona foydalanish, shuningdek, osmotik moslashuv va antioksidant tizimini izchil tartibga solish usullari keng qo'llanilmoqda. Shu bilan birga, ekinlarning qurg'oqchilikka chidamli genofondlaridan seleksion tadqiqotlarda foydalanish va ularni qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishga joriy etishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda so'nggi yillarda turli tuproq-iqlim sharoitlarida soya o'simligini yetishtirish bo'yicha olib borilgan keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari natijasida bioekofiziologik va agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish, fiziologik, molekular, ontogenetik va innovatsion yondashuvlarni uyg'un qo'llash orqali aholini sifatli moy va oqsil bilan, chorvachilik hamda parrandachilikni to'yimli ozuqa bilan ta'minlash amaliyotga tatbiq etilmoqda. Suv tanqis va qurg'oqchilik muhitga moslashgan qishloq xo'jaligi ekinlari navlarining stressga chidamlilik darajasini ilmiy asoslash va amaliyotga joriy etish so'nggi yillarda ijobiy natijalarni ko'rsatmoqda. Bu borada, O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"<sup>1</sup> .....ozuqabop ekinlarning serhosil navlarini ko'paytirish, turli tuproq-iqlim sharoitlarga moslashgan qishloq xo'jalik ekinlarining yangi seleksiya navlarini yaratish va ishlab chiqarishga joriy etish

---

<sup>1</sup>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022–2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi"gi PF-60-son Farmoni.

hamda tuproq unumdorligini oshirish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini kengaytirish vazifalari belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirishda, xususan, mamlakatimizda muhim ahamiyatga ega bo'lgan soya o'simligi hosildorligini oshirish hamda optimal, cheklangan va qurg'oqchil sharoitlarda chidamli navlarni tanlash, ularni yetishtirishda o'simliklarning fiziologik-biokimyoviy xususiyatlarini tatbiq qilish asosida tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 10-fevraldagi 105-son "Respublikada soya yetishtirish hajmlarini yanada ko'paytirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son, "O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi Farmoni, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60 sonli "2022-2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" gi Farmoni hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalarni rivojlanishining asosiy ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. "Qishloq xo'jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Xorijiy mamlakatlarda soya o'simligining ekofiziologik xususiyatlari hamda mahsuldorligi bo'yicha keng ko'lamli tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Jumladan, bu yo'nalishda xorijlik olimlar tomonidan soyaning ayrim biofiziologik xususiyatlari va suv ta'minoti masalalari bo'yicha ma'lumotlar R. Battisti, P. C. Sentelhas, va boshq., (2017), H.Ye, L.Song, W. T. Schapaugh va boshq., (2019), HMD Goulart, K.van der Wiel, C. Folberth va boshq., (2023), suv tanqisligining hosil va uning sifatiga ta'siri H.Arya, M.B.Singh, P.L.Bhalla (2021), X.Wang, X. Li, S.Dong (2021), iqlim o'zgarishining soya mahsuldorligiga ta'siri C.Nendel, M.Reckling, P.Debaeke va boshq. (2023), K. Kothari, R. Battisti, K.J.Boote va boshq., (2022). kabi ilmiy manbalarda keltirilgan.

MDH mamlakatlarida soya o'simligi va donining biokimyoviy tarkibi V.S. Petibskaya (2012), muhit omillari ta'siri va bioekologik jihatlari I. Yu. Ivanova, A.A.Fadeyev, (2020), mahsuldorlik va hosildorlik xususiyatlari O.V.Shegores (2018), suv ta'minoti va oziqlanish hamda qo'llaniladigan agrotexnik tadbirlar S.V.Zelensov (2005), V.A.Fedotov, S.V.Goncharov, O.V.Stolyarov (2013), soya yetishtirish texnologiyasi masalalari V.F.Baranova, V.M.Lukomsa (2005), V.F. Baranov A.V.Kochegura, V.M.Lukomes (2009) va boshqa olimlarning tadqiqot ishlarida atroflicha yoritilgan.

Respublikamiz sharoitida soya o'simligi navlarining biokimyoviy xususiyatlari M.Sh.Jaynaqov (2021), N.F.Mirzayev (2022), bioekologik xususiyatlari D.R.Annamuratova (2010), kasalliklarga chidamligi O'.X.Yuldashev (2023), mineral oziqlanish asoslari V.N.Muxitdinov (2020), O.Sattarov (2019),

o'sish va rivojlanish hamda hosildorlik ko'rsatkichlari bo'yicha D.V.Soliyeva (2022) va boshqalar tomonidan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilgan.

Biroq, Buxoro viloyatining tuproq va iqlim sharoitida soya navlarining qurg'oqchil va suv tanqis bo'lgan o'tloqi-allyuvial tuproqlarda suv stressiga chidamlilik darajasi hamda ekomorfomoslashish hamda himoyaviy fiziologik asoslarini o'rganish bo'yicha tadqiqot ishlari amalga oshirilmagan.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi.** Mazkur tadqiqot Buxoro davlat universiteti Biologiya kafedrası ilmiy-tadqiqot ishlari "O'zbekiston o'simliklar dunyosining bioxilma-xilligini muhofaza qilish va boyitish", "Istiqbolli noan'anaviy o'simliklar introduksiyasi va fiziologo-biokimyoviy xususiyatlari" mavzusidagi ilmiy tadqiqot ishlarining rejaları bilan bog'liq holda 2023-2025 yillarda bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi.** Har xil darajadagi tuproq namligi va qurg'oqchilik sharoitida soya (*Glycine max (L.) Merr.*) navlarining fiziologiyasi, mahsuldorligi va hosildorligiga suv stressi ta'siri asosida navlarning chidamlilik darajasini aniqlash.

#### **Tadqiqotning vazifalari:**

Buxoro viloyatining o'tloqi-allyuvial tuproqlari sharoitida soya navlarining fiziologik xususiyatlarini, mahsuldorlik darajasini tuproqning har xil namlik sharoitlarida navlar kesimida o'rganish hamda tuproq namlik darajasi optimal, cheklangan va qurg'oqchil sharoitlarda turli soya navlarining fiziologik va suv stressiga chidamlilik xususiyatlarini baholash;

qurg'oqchil sharoitda turli soya navlarining mahsuldorlik va qurg'oqchilikka chidamlilik darajasini aniqlash maqsadida navlarning o'sish jadalligini, barg sathining kengayishini, fotosintez so'f mahsuldorligi va hosil salmog'ini hamda urug'lar tarkibidagi oqsil va yog'lar miqdorini navlar kesimida o'rganish;

suv tanqisligi sharoitida soya navlarini yetishtirish hamda agrotexnologik imkoniyatlarini oshirish maqsadida fiziologik va biokimyoviy chidamlilik asosida navlarga suv stressining ta'sir darajalarini o'rganish va tuproqdagi namlik darajasi hamda navlarning ontogenetik xususiyatlariga bog'liq holda har xil darajada o'zgarishini asoslash;

o'rganilgan fiziologik va mahsuldorlik ko'rsatkichlar qiymatining qurg'oqchilikka chidamliligi va moslashish darajasiga bevosita bog'liqligini navlar kesimida o'rganish;

amalga oshirilgan tajribalar asosida qurg'oqchilikka chidamli va adaptatsiya darajasi yuqori, o'rta va past bo'lgan navlarni suv zaxiralari miqdori asosida tegishli hududlarga joriy qilish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqish.

**Tadqiqotning obyekti** sifatida soya (*Glycine max (L.) Merr.*) ning "Chara", "Zara", "Bars", "Arisoy", "Zamin", "Olmos", "Optima" navlari olingan.

**Tadqiqotning predmetini** istiqbolli soya (*Glycine max (L.) Merr.*) navlarining fiziologik, mahsuldorlik va har xil namlik sharoitlarida hosildorlik darajasini aniqlash, shuningdek, suv stressi ta'siriga chidamli va mahsuldorligi yuqori bo'lgan navlarni aniqlash tashkil qiladi.

**Tadqiqotning usullari.** Dissertatsiya ishida laboratoriya va dala tajribalari, morfologik, fiziologik, biokimyoviy, fenologik, kuzatish va statistik usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

ilk bor Buxoro viloyatining o'ziga xos tuproq-iqlim sharoitida soya navlarining fiziologik xususiyatlari hamda mahsuldorlik darajasi tuproqning har xil namlik sharoitlarida navlar kesimida qiyosiy tarzda baholanib, o'simlikning mahalliy agroiklimiy muhitga moslashuv qonuniyatlari ilmiy asoslangan;

soya urug'lari tarkibidagi oqsil va yog' miqdorining qurg'oqchilik sharoitida o'zgarish dinamikasi aniqlanib, ushbu biokimyoviy ko'rsatkichlarning hosildorlik va fiziologik moslashuv ko'rsatkichlari bilan uzviy bog'liqligi navlarning suv taqchilligiga javob reaksiyasini tavsiflovchi ishonchli mezonligi aniqlangan;

soya navlarining suv stressiga chidamlilik xususiyatlari transpiratsiya jadalligi, barglarning kunduzgi suv tanqisligi, hujayralarning turgor holati, barg to'qimalarining osmotik bosimi, bog'langan suv miqdori, katalaza fermenti faolligi, fotosintetik pigmentlar va fotosintetik potensial ko'rsatkichlari asosida kompleks baholangan;

suv tanqisligi va tuproqning har xil namlik sharoitlarida "Zara", "Bars" va "Optima" navlariga nisbatan "Arisoy", "Zamin" va "Chara" navlarida fiziologik va biokimyoviy ko'rsatkichlar qiymati ontogenetik xususiyatlariga bog'liqligi asoslangan;

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

Soya navlarining o'sishi, rivojlanishi, don hosildorligi va urug'larining biokimyoviy tarkibiga turli namlik darajalari ta'siri va o'simliklarning o'zgargan muhit sharoitida navning moslashish darajasi yuqori bo'lgan "Arisoy", "Zamin", navlari hamda tashqi ta'sirlarga nisbatan sezgir "Optima" va "Zara" navlari ilmiy asosda aniqlangan;

Amalga oshirilgan tajribalar asosida qurg'oqchilikka chidamlilik va adaptatsiya darajasi yuqori bo'lgan "Arisoy", "Zamin" va "Chara" navlarini suv stressiga chidamlilik darajasi asosida suv tanqis va issiq shamollar kuzatiladigan hududlarga, qurg'oqchilikka chidamlilik darajasi – o'rtacha bo'lgan "Olmos" va "Bars", chidamlilik darajasi past bo'lgan "Optima" va "Zara" navlarini suv tanqisligi kamroq kuzatiladigan hududlarga ekib, yuqori hosil olish mumkinligi asoslangan;

Buxoro viloyatining suv tanqis sharoitida soya navlarining tuproqdagi suv stressiga chidamlilik darajasi asosida, ularni joylashtirish va yuqori hosildorlikni ta'minlash bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** ishda qo'llanilgan laboratoriya va dala tajribalaridan olingan nazariy hamda amaliy natijalarning mahalliy va xorijiy tajribalar bilan qiyoslanganligi, keltirilgan xulosalarning asoslanganligi, ilmiy natijalarning respublika va xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokama qilinganligi hamda dissertatsiya ishi natijalari O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan e'tirof etilgan ilmiy jurnallarda chop etilganligi, tavsiyalarining amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turli soya navlarining Buxoro viloyati iqlimida har xil tuproq namlik sharoitlarida fiziologik jarayonlarning mahsuldorlik darajasiga bog'liqligi asoslab berilganligi va soyani yetishtirishda tuproqning namlik rejimini to'g'ri boshqarish bilan urug' hosilini oshirish mumkinligini, tuproq namligini ta'minlash orqali hosildorlikni navlar kesimida o'rtacha 12–15% ga oshirib, gektar hisobiga 28,4 sentnergacha soya hosilini olish imkoniyati hamda ishlab chiqarishga amaliy tavsiyalar ishlab chiqilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot davomida qurg'oqchilik va suv tanqisligi sharoitida yetishtirish uchun istiqbolli deb aniqlangan hamda chidamlilik darajasi va mahsuldorligi yuqori bo'lgan oqsil va o'simlik moyiga boy "Arisoy", "Zamin" va "Chara" soya navlarini hududlarga ekishni kengaytirish orqali yuqori sifatli hosil olish, oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash hamda chorvachilik uchun sifatli yem-xashak bazasini oshirish imkoniyatining yaratilishi o'z navbatida ushbu tavsiyalarni amaliyotga joriy etish asosida qurg'oqchil hududlarda soya yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirishga xizmat qiladi.

**Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi.** "Buxoro viloyati sharoitida soya navlarining qurg'oqchilikka chidamlilik fiziologiyasi" mavzusi bo'yicha olingan ilmiy natijalarga asosan:

qurg'oqchilikka chidamlilik va adaptatsiya darajasi yuqori bo'lgan "Arisoy", "Zamin" va "Chara" navlarini suv stressiga chidamlilik darajasi asosida suv tanqis va issiq shamollar kuzatiladigan hududlarga, qurg'oqchilikka chidamlilik darajasi – o'rtacha bo'lgan "Olmos" va "Bars", chidamlilik darajasi past bo'lgan "Optima" va "Zara" navlarini suv tanqisligi kamroq kuzatiladigan hududlarga ekish Buxoro tumanida joylashgan "Madaniyat Muhammad Ismat" fermer xo'jaligi amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi Qishloq xo'jaligida bilim va innovatsiyalar milliy markazining 2026-yil 25-fevraldagi 05/05-02-129-son ma'lumotnomasi). Natijada, qurg'oqchilikka ekofiziologik chidamlilik darajasi yuqori bo'lgan soyaning "Arisoy" navidan optimal namlikda 28,4 s/ga; cheklangan namlikda - 26,3 s/ga; qurg'oqchil sharoitda - 23,0 s/ga ni tashkil etib, "Zamin" navining hosildorligi mos ravishda- 26,5; 24,0; 20,1 s/ga ni tashkil etib, "Chara" navidan mos ravishda- 25,8; 22,0 va 19,2 s/ga ni tashkil etib, iqtisodiy samaradorlikka erishish imkonini bergan;

qurg'oqchilikka ekofiziologik chidamlilik darajasi har xil bo'lgan soya navlarini yetishtirish agrotexnologiyasini takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar "Yakkatut paxtachilik, g'allachilik, sholichilik va urug'chilik klasteri" amaliyotiga joriy qilgan (O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2026-yil 25-fevraldagi 05/05-02-129-son ma'lumotnomasi). Natijada, boshqa o'rganilgan navlarga nisbatan optimal, cheklangan va qurg'oqchil variantlarda hosil salmog'ining mos ravishda 12-15 % ga oshirish imkonini bergan.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Tadqiqot natijalari 6 ta, jumladan, 3 ta xalqaro, 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 1 ta mualliflik guvohnomasi, jami 14 ta ilmiy ishlar nashr etilgan bo'lib, shulardan,

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, tavsiyalar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 sahifani tashkil etadi.

## DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekt va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Global iqlim o'zgarishi sharoitida soyaga qurg'oqchilik ta'sirining fiziologik asoslar”** deb nomlangan birinchi bobi nazariy-tahliliy xarakterga ega bo'lib, unda global hamda respublika miqyosida soya navlarining qurg'oqchilikka chidamliligi, qurg'oqchilikning oldini olish mexanizmlari, biokimyoviy ko'rsatkichlariga oid olib borilgan ilmiy tadqiqotlar, ilmiy yondashuvlar va ularning natijalari tizimli tarzda ko'rib chiqilgan va ilmiy jihatdan tahlil etilgan. Shuningdek, mavzu o'rganilishining hozirgi ahvoli, o'simliklarga stress omillar ta'siri masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlar tizimlashtirilgan va nazariy jihatdan tahlil qilingan. O'tkazilgan tadqiqotlarning hozirgi holati adabiyot manbalari kesimida solishtirma yoritilgan.


Dissertatsiyaning **“Tadqiqot obyektlari, uslublari va sharoitlari”** deb nomlangan ikkinchi bobi tadqiqot ishining metodologik hamda tajribaviy asoslarini bayon etishga qaratilgan bo'lib, unda olib borilgan ilmiy tadqiqotlarning tashkil etilishi va qo'llanilgan uslubiy yondashuvlar izchil ravishda yoritilgan. Ushbu bobda tadqiqot o'tkazilgan hudud sifatida Buxoro viloyati sharoitida soyaning ushbu navlari Buxoro tumanida joylashgan “Madaniyat Muhammad Ismat” fermer xo'jaligi va Jondor tumanida joylashgan “Yakkatut paxtachilik, g'allachilik, sholichilik va urug'chilik klasteri” ekin maydonlarida olib borildi. Ilmiy izlanishlar 2023–2025–yillar davomida amalga oshirilganligi hamda tajribalar laboratoriya, yarim dala va ishlab chiqarish sharoitlarida olib borilganligi haqida batafsil ma'lumotlar keltirilgan.

Transpiratsiya jadalligi torzion VT-500 (Rossiya) tarozida tortish usuli bilan aniqlandi. Barglar tarkibidagi bog'langan suv miqdori termostat usuli bilan, barglardagi kunduzgi suv tanqisligi I.A.Grigoryuk va boshq., (2003), umumiy xlorofillar miqdori esa Minolta SPAD-502 (SPAD-Soil Plant Analysis Development) (Yaponiya) xlorofillmetr asbobida aniqlandi. Fotosintez jadalligi yarim barg usuli, barg hujayralarining turgorlik darajasi turgoromer (TN-10-60TS) (Moldaviya) asbobi yordamida hisobga olindi. Barg sathining kengayishi kesmalar va fotosintez sof mahsuldorligi A.A.Nichiporovich va boshq., (1961) usuli bilan

hisobga olib borildi. Ma'lumotlarni statistik qayta ishlash MS Excel 2003 va Sigma Stat amaliy kompyuter programmalari yordamida amalga oshirildi.

Dissertatsiyaning **“Soya navlari bioekofiziologik xususiyatlariga qurg‘oqchilik darajalari ta’siri”** nomli uchinchi bobida tadqiqot ishining asosiy natijalarini o‘z ichiga oladi. Bobda transpiratsiya jadalligi, barg to‘qimalarining osmotik bosimi, turgosentlik darajasi, barglardagi bog‘langan suv miqdori, katalaza fermenti faolligi, fotosintetik pigmentlar miqdori, barglarning fotosintez jadalligi, o‘shish jadalligi, navlarning barg sathining kengayishi, fotosintez sof mahsuldorligi ko‘rsatkichlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Barcha navlarda suv tanqisligi ortgani sari osmotik bosim ortgan, lekin bu ortishning darajasi navga xos bo‘lgan. Eng yuqori o‘shish “Arisoy” navida, eng kichik o‘shish esa “Optima” navida kuzatilgan (1-rasm).



**1- rasm. Barg to‘qimalari osmotik bosimiga qurg‘oqchilik ta’siri,atm**

Bu shuni anglatadiki, suv tanqisligi kuchayganda “Arisoy” o‘z hujayralaridagi suvni ushlab turish uchun kuchli osmotik bosim hosil qiladi, bu esa metabolik energiya sarfini oshiradi va stress sharoitida o‘simlikning umumiy o‘shishini sekinlashtiradi. Aksincha, “Optima” va “Bars” navlarida osmotik bosim kuchi suv tanqisligi sharoitida pasayishi kuzatilgan. G‘unchalash davrida, odatda, barcha navlarda osmotik bosim gullash va dukkaklashga nisbatan past bo‘lgan. Bu o‘simlikning vegetativ o‘shish davrida suv bilan yetarli ta‘minlanganligini bildiradi. Gullash fazasida esa osmotik bosim biroz ortgan, chunki bu davrda transpiratsiya kuchayadi va barg to‘qimalaridagi suv potentsiali kamayadi.

Shu orqali aytish mumkinki, barg to‘qimalaridagi osmotik bosim o‘simlikning suv bilan ta‘minlanganlik holatini aniq aks ettiruvchi ko‘rsatkich hisoblanadi. Qurg‘oqchilik sharoitida o‘simliklarning osmotik bosimi oshgani sayin ularning suv ushlab qolish qobiliyati ortadi, ammo bu jarayon ortiqcha davom etsa, fiziologik jarayonlar sekinlashadi. Shuning uchun suv tanqisligiga chidamli navlarni tanlashda, faqat osmotik bosimning miqdoriga emas, balki uning o‘shish sur‘atiga ham e‘tibor berish muhimdir.


Umuman olganda, barcha navlarda suv tanqisligi kuchaygani sari suv potentsiali oshgan, lekin bu o‘shish darajasi navlarga qarab farq qilgan. Eng katta o‘shish “Optima” navida kuzatilgan, bu nav suvni yo‘qotishga nisbatan sezgir, eng kichik o‘shish esa “Arisoy” navida bo‘lib, bu uning qurg‘oqchilikka nisbatan chidamliligini bildiradi. G‘unchalash bosqichida barcha navlarda suv potentsiali eng past qiymatlarda bo‘lgan, chunki o‘simliklar vegetativ rivojlanishning dastlabki davrida suv bilan yaxshi ta‘minlangan bo‘ladi. Gullash davrida suv potentsiali biroz ortgan, bu davrda transpiratsiya jadallashgani va barglardagi suv yo‘qotilishi kuchaygani bilan izohlanadi. Dukkaklash davrida esa suv potentsiali maksimal qiymatga yetgan, bu o‘simliklarning fiziologik stress holatiga kirishini bildiradi, chunki bu fazada suv asosan urug‘ shakllanishiga yo‘naltiriladi va barglardagi suv miqdori kamayadi.

Barglarning kunduzgi suv tanqisligiga qurg‘oqchilikning ketma-ket ta‘siri ko‘rsatilgan bo‘lib, turli tuproq namligi darajalarida har bir navning g‘unchalash, gullash va dukkaklash fazalaridagi kunduzgi suv tanqisligi foiz o‘zgarishlari aniq raqamlar bilan berilgan. Ma’lumotlar shuni ko‘rsatadiki, tuproq namligi pasaygani sari barcha navlarda barglardagi suv tanqisligi kuchayadi va bu kunduzgi suv tanqisligi ko‘rsatkichining oshishi orqali ifodalanadi. Barcha navlarni solishtirganda, tuproq namligi 70% bo‘lgan sharoitda barcha fazalarda kunduzgi suv tanqisligi eng past darajada qayd etilgan bo‘lib, bu o‘simliklarning normal suv ta‘minotiga ega ekanligini bildiradi.

Namlik 50% gacha kamayganda barglarda suv tanqisligi o‘rtacha darajada kuchayadi, bu esa barcha navlarda kunduzgi suv tanqisligi ko‘rsatkichlarining o‘rtacha 0,5–1,5 birlikka oshishiga sabab bo‘lgan. Eng keskin o‘zgarishlar 30% namlikda kuzatiladi. Bu sharoitda barcha navlar suv tanqisligining yuqori bosimi ostida qoladi va barglardagi suvsizlanish kuchayadi. Ayniqsa “Zara”, “Olmos”, “Bars” va “Optima” navlarida kunduzgi suv tanqisligi eng yuqori qiymatlarga yetgan.

Fazalar bo'yicha tahlil qilinsa, g'unchalash fazasida barcha navlarda kunduzgi suv tanqisligi eng past qayd qilinadi, chunki o'simlik o'sishning boshida bo'lib, transpiratsiya hali yuqori emas. Gullash davrida barglar faoliyatining kuchayishi, metabolik jarayonlarning jadallashishi tufayli suv tanqisligi kuchayadi va kunduzgi suv tanqisligi ko'tariladi. Dukkaklash fazasida esa hamma navlarda kunduzgi suv tanqisligi maksimal qiymatlarga yetgan. Bu davrda o'simlik suvni asosan generativ organlarga yo'naltiradi, barglarda esa suv tanqisligi kuchayadi (2-rasm).

“Chara”, “Bars” va “Olmos” navlari esa o'rta guruhga kiradi, ularda kunduzgi suv tanqisligi barqaror, ammo suv tanqisligi kuchayganda sezilarli oshishlar kuzatiladi. Umumiy xulosaga ko'ra, tuproq namligi 70% bo'lganda barglar fiziologik jihatdan qulay sharoitda bo'ladi, 50% da suv tanqisligi o'rtacha darajada kuchayadi, 30% da esa kuchli stress kuzatiladi.



2-rasm. Barglarning kunduzgi suv tanqisligiga qurg'oqchilik ta'siri

Suv tanqisligiga eng sezgir navlar “Zara” va “Optima” bo’lsa, “Arisoy” va “Zamin” nisbatan barqarorroq natija ko’rsatgan, “Chara”, “Bars” va “Olmos” esa o’rtacha bardoshlilik guruhida turadi. Barcha ma’lumotlar kunduzgi suv tanqisligi ko’rsatkichining o’simliklarning suv ta’minotiga bo’lgan javobini baholashda ishonchli indikator ekanini tasdiqlaydi.

Jadval ma’lumotlari umumlashtirilganda, barcha navlarda namlik kamayishi bilan katalaza fermenti faolligi ortishi kuzatildi. Bu esa o’simliklarning qurg’oqchilik sharoitida yuzaga keladigan oksidativ stressni kamaytirish uchun fermentlarni faollashtirish mexanizmini ishga tushirishini ko’rsatadi(1-jadval).

Gullash fazasida katalaza fermenti faolligi turli tuproq namlik darajalarida qanday o’zgarishini ko’rsatadi. Bu jarayon navlarning qurg’oqchilikka chidamlilik darajasini aniqlashda muhim hisoblanadi, chunki katalaza o’simlik hujayralarida hosil bo’ladigan erkin radikallarni zararsizlantiruvchi asosiy himoya fermentlaridan biridir. Uning faolligi sharoit og’irlashgan sari o’zgaradi, shu bois har bir nav bo’yicha gullash fazasidagi ko’rsatkichlarni solishtirish ularning stressga moslashuvini tasavvur qilish imkonini beradi.

#### 1-jadval

##### Soya navlarining gullash fazasida katalaza fermenti faolligi, mlO<sub>2</sub>

| № | Navlar        | Tuproqning namlik darajasi, % |           |           |
|---|---------------|-------------------------------|-----------|-----------|
|   |               | 70                            | 50        | 30        |
| 1 | <b>Arisoy</b> | 17,8±0,22                     | 18,3±0,15 | 19,5±0,24 |
| 2 | <b>Zara</b>   | 15,5±0,13                     | 15,9±0,21 | 16,3±0,19 |
| 3 | <b>Zamin</b>  | 17,6±0,15                     | 18,0±0,16 | 19,0±0,22 |
| 4 | <b>Chara</b>  | 17,3±0,19                     | 17,8±0,17 | 18,4±0,16 |
| 5 | <b>Olmos</b>  | 16,8±0,19                     | 17,3±0,21 | 17,9±0,20 |
| 6 | <b>Bars</b>   | 16,4±0,23                     | 16,9±0,14 | 17,3±0,19 |
| 7 | <b>Optima</b> | 15,9±0,15                     | 16,4±0,20 | 16,8±0,22 |

Eng yuqori katalaza faolligi qurg’oqchil namlik sharoitida “Arisoy” va “Zamin” navlarida kuzatildi va bu navlarning qurg’oqchilikka yaxshi moslashganini, ularning himoya tizimi faollashuvi kuchli bo’lishini ko’rsatadi. “Zara” va “Optima” navlarida esa bu o’zgarishlar uncha katta emas, bu navlarning qurg’oqchilikka nisbatan sezgirroq bo’lishi mumkinligini bildiradi. “Chara”, “Olmos” va “Bars” navlari o’rtacha javob ko’rsatib, past himoya reaksiyasiga ega navlar qatoriga kiradi. Gullash fazasi o’simlik uchun muhim fiziologik davr bo’lgani uchun katalaza faolligining o’zgarishi aynan bu bosqichda navlarning stressga chidamlilik darajasini taqqoslashda katta ahamiyatga ega.

Namlik 70% bo’lgan sharoit nisbatan qulay bo’lib, barcha navlarda katalaza ko’rsatkichlari eng past bo’ladi, chunki oksidativ stress darajasi minimal bo’ldi. Namlik 50% ga kamayganda barcha navlarda ferment faolligi biroz ortadi, bu o’simlikning moslashuv mexanizmlari ishga tushganidan dalolat beradi. 30% eng past namlik sharoitida esa barcha navlarda katalaza ko’rsatkichlari maksimal darajaga yetadi va bu ularning himoya tizimi maksimal kuchlanish holatida ekanini ko’rsatadi. Navlar kesimida taqqoslaganda “Arisoy”, “Zamin” va qisman “Chara” navlari qurg’oqchilik sharoitida yanada faol javob ko’rsatib, yuqori katalaza

faolligi bilan ajralib turadi. Bu navlar oksidativ stressga nisbatan bardoshli bo'lishi mumkin.

Fotosintetik pigmentlarning miqdori turli navlar, tuproqdagi namlik darajalari va ekologik omillar ta'sirida sezilarli darajada o'zgarishi kuzatiladi, bunda ayniqsa xlorofill "a", xlorofill "b" va karotinoidlar konsentratsiyasi o'simlikning stressga chidamliligi, fiziologik moslashuvchanligi va fotosintez jarayonining barqarorligini bevosita aks ettiradi. Shuning uchun jadvalda keltirilgan barcha navlarda 70%, 50% va 30% namlik sharoitida pigmentlar miqdorining qanday o'zgarishi ularning qurg'oqchilikka moslashuv darajasini aniqlash imkonini beradi. Masalan, "Arisoy" navida 70% namlikda xlorofill "a" miqdori 3,55 mg/g, xlorofill "b" miqdori 1,50 mg/g va karotinoidlar 0,97 mg/g bo'lib, bu ko'rsatkichlar o'simlikning optimal suv bilan ta'minlangan sharoitida yuqori fotosintetik faollikka ega ekanini ko'rsatadi (2-jadval).

**2-jadval**

**Fotosintetik pigmentlari miqdoriga qurg'oqchilik ta'siri, mg/g**


| № | Navlar | Tuproqdagi namlik darajalari, % | Gullash             |                     |                 |
|---|--------|---------------------------------|---------------------|---------------------|-----------------|
|   |        |                                 | Xlorofill "a", mg/g | Xlorofill "b", mg/g | Karotinoid mg/g |
| 1 | Arisoy | 70                              | 3,55±0,11           | 1,59±0,09           | 0,75±0,03       |
|   |        | 50                              | 3,36±0,08           | 1,45±0,04           | 0,86±0,04       |
|   |        | 30                              | 3,17±0,10           | 1,31±0,07           | 0,97±0,05       |
| 2 | Zara   | 70                              | 3,30±0,09           | 1,34±0,08           | 0,47±0,02       |
|   |        | 50                              | 3,02±0,08           | 0,95±0,06           | 0,65±0,04       |
|   |        | 30                              | 2,61±0,07           | 0,81±0,02           | 0,78±0,03       |
| 3 | Zamin  | 70                              | 3,51±0,08           | 1,56±0,05           | 0,73±0,04       |
|   |        | 50                              | 3,32±0,09           | 1,43±0,03           | 0,84±0,03       |
|   |        | 30                              | 3,14±0,10           | 1,27±0,04           | 0,95±0,04       |
| 4 | Chara  | 70                              | 3,46±0,08           | 1,52±0,08           | 0,78±0,04       |
|   |        | 50                              | 3,24±0,09           | 1,39±0,06           | 0,80±0,03       |
|   |        | 30                              | 3,00±0,10           | 1,22±0,05           | 0,91±0,04       |
| 5 | Olmos  | 70                              | 3,43±0,08           | 1,49±0,03           | 0,64±0,04       |
|   |        | 50                              | 3,20±0,08           | 1,34±0,04           | 0,77±0,03       |
|   |        | 30                              | 2,97±0,09           | 1,15±0,08           | 0,88±0,03       |
| 6 | Bars   | 70                              | 3,39±0,10           | 1,45±0,07           | 0,60±0,04       |
|   |        | 50                              | 3,11±0,09           | 1,24±0,06           | 0,72±0,03       |
|   |        | 30                              | 2,74±0,08           | 1,09±0,05           | 0,85±0,03       |
| 7 | Optima | 70                              | 3,37±0,10           | 1,42±0,07           | 0,56±0,04       |
|   |        | 50                              | 3,10±0,08           | 1,15±0,08           | 0,65±0,03       |
|   |        | 30                              | 2,68±0,09           | 1,01±0,03           | 0,81±0,04       |

Namlik 50% ga pasayganda pigmentlar biroz kamayadi, ammo keskin o'zgarish kuzatilmaydi, bu o'simliklarning o'rtacha stressga chidamliligini ko'rsatadi. 30% namlik darajasida esa barcha navlarda pigmentlar sezilarli darajada kamayib, fotosintetik apparatning qurg'oqchilikka javob reaksiyasi

kuchayadi. Xususan xlorofill “a” miqdori barcha navlarda 10–25% gacha, xlorofill “b” 15–30% gacha kamayadi, karotinoidlar esa 20–35% gacha ortadi.

Karotinoidlar eng barqaror pigment sifatida stress sharoitida ham fotosistemalarni himoya qilishda davom etadi. Shuning uchun ularning pasayish darajasi xlorofillga nisbatan biroz sekinroq bo‘ladi. Olingan ma’lumotlar navlarning qurg‘oqchilikka chidamliligini solishtirish imkonini beradi. “Arisoy”, “Zamin” va “Chara” navlarida pigmentlar barqarorligi nisbatan yuqori, “Bars” va “Optima” navlarida esa pasayish kattaroq bo‘lgani ularning ekologik stressga nisbatan sezgirligini ko‘rsatadi.

Keltirilgan ma’lumotlar o‘simliklarning fotosintez jarayoniga ta’sir qiluvchi omillarni, xususan, namlik darajasining ta’sirini o‘rganishga qaratilgan (3-rasm).



**3-rasm. Barglarning fotosintez jadalligiga qurg‘oqchilik ta’siri, g/m<sup>2</sup> soat**

Har bir nav va namlik darajasi bo‘yicha o‘lchangan ko‘rsatkichlar bu bosqichlarning samaradorligini baholashga imkon beradi. Ushbu ko‘rsatkichlar, o‘simliklar qanday sharoitda eng yaxshi rivojlanishini va fotosintez jarayonini qanday optimallashtirish mumkinligini aniqlash uchun foydalidir. Namlik darajasining o‘simliklarning fotosintez jarayoniga ta’siri juda katta. O‘simliklar uchun optimal namlik darajasi ularning o‘rishini va rivojlanishini ta’minlashda muhim rol o‘ynaydi. Rasmda keltirilgan navlar, masalan, “Arisoy”, “Zara”, “Zamin” va boshqa navlar, turli namlik darajalarida fotosintez jarayonining

samaradorligini qanday o'zgartirishi mumkinligini ko'rsatadi. Namlik darajasining pasayishi bilan fotosintezning barcha bosqichlari samaradorligi kamayadi, bu esa o'simliklarning umumiy o'sishiga ta'sir qiladi. Barcha navlarda fotosintezning samaradorligi namlik darajasiga bog'liq holda o'zgaradi. Namlik darajasi yuqori bo'lganida, o'simliklar fotosintez jarayonini samarali amalga oshiradi. O'simliklar uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratish orqali fotosintezning barcha bosqichlarini samarali amalga oshirish mumkin, bu esa o'simliklarning umumiy holati va hosiliga bevosita ta'sir qiladi.

Dissertatsiyaning **“Soya navlarining o'sishi va mahsuldorlik ko'rsatkichlariga qurg'oqchilik darajalari ta'siri”** nomli to'rtinchi bobida navlarning o'sish jadalligi, navlar barg sathining kengayishi, navlarning fotosintez so'f mahsuldorligi, navlarning hosil salmog'i, 1000 dona urug' vazni, urug'lar tarkibidagi oqsil va yog' miqdori navlar kesimida suv stressi ta'sirini o'rganish bo'yicha tajribalar davomida olingan ilmiy natijalar va bob bo'yicha xulosalar keltirilgan.

Tadqiqotlarga ko'ra, 70% tuproq namligi barcha navlar uchun nazorat hisoblanib, hosildorlikning 100% darajada namoyon bo'lishi o'simlikning optimal suv bilan ta'minlangan sharoitda to'laqonli rivojlanishini bildiradi (3-jadval).

### 3-jadval

**Soya navlarning hosil salmog'iga qurg'oqchilik ta'siri  
(o'rtacha 2023-2025 yy.)**

| № | Navlar | Tuproqdagi<br>namlik<br>darajalari, % | Hosildorlik,<br>s/ga | Nazoratga<br>nisbatan,<br>s/ga | Nazoratga<br>nisbatan<br>farq, % |
|---|--------|---------------------------------------|----------------------|--------------------------------|----------------------------------|
| 1 | Arisoy | 70                                    | 28,4±0,43            |                                | 100                              |
|   |        | 50                                    | 26,3±0,25            | 2,1                            | 92,6                             |
|   |        | 30                                    | 23,0±0,31            | 5,4                            | 80,9                             |
| 2 | Zara   | 70                                    | 21,7±0,36            |                                | 100                              |
|   |        | 50                                    | 16,2±0,41            | 5,5                            | 74,6                             |
